

HAYOT KITOBIMIZNING YANGI SAHIFASI

Isayeva Muxtabar Xayrutdinovna

Toshkent shahar Olmazor tumani maktabgacha va maktab ta'lim tasarrufidagi 46-maktabning o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarni komil inson etib tarbiyalash masalalari yoritilgan. Tarbiyaning rang- barang shakllari, uslub va vositalari bo'yicha o'quvchi yoshlarning qalbi va ongiga yetib boradigan, tarbiya jarayonida ma'naviy dunyoqarashini, ma'naviy- axloqiy tuyg'ularini shakllantirishdagi imkoniyatlardan foydalanish usullari ko'rsatilgan. O'quvchi- yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlarni hurmat hissini tarbiyalash ayni paytda o'zining fuqarolik huquqi va burchlarini chuqur anglagan holda yashashi haqida atroflicha tushuncha berilib, o'zbek xalqining qutlug' merosidan yoshlarimizning muntazam va to'laqonli bahramand bo'lishiga, ularning mana shunday ma'naviyat muhitida kamol topishiga, o'quvchi yoshlarning komil inson bo'lib buyuk kelajak sari intilishlariga yo'llanma berilgan va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishning nazariy tamoyillari ochib berilgan.

Maqola soha mutaxassislari, tadqiqotchilar, o'qituvchilar va keng jamoa ommasiga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: oila, qadriyatlar, konstitutsiya moddalari, jamiyat, allomalar fikri, farovon hayot, kiber o'yinlarining zarari, mutaxassis, qotil bolalar, mobil telefonlari, tadqiqotlar, kitob o'qish kerakmi?

Vaqt-inson umrini hisob- kitob qiluvchi lahzalardir. Inson har bir lahzasini vaqt dovonlaridan oshib o'tishga sarflaydi. Vaqtning ahamiyati uning ko'pligi bilan emas, qanchalik unumli, samarali o'tgani bilan belgilanadi. Zero, qolayotgan har bir kun hayot kitobining bir varag'i o'qilib bitganini anglatadi.

Mamlakatimizda mustaqil hayot ostonasiga qadam qo'yib, oila qurayotganlar uchun yanada qulay shart- sharoitlar yaratildi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasining XIV bob, Oila, bolalar va yoshlar bo'liming 76 – moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasidadir.

Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.

Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.”- deb ta'kidlangan. Shunday ekan, yangi qurilgan oila qaddini tiklab olishi uchun ota- ona, qarindosh-urug', mahalla- ko'y, boringki, butun jamiyat xayrixohlik bilan yordam beradi. Chunki bizda turmush tuzumi

azaldan shunday. Bu an'ana bizga ajdodlardan meros bo'lib kelmoqda. Chunki oila biz uchun, shunchaki, ikki yosh nikohining qayd etilishigina emas, chinakam qadriyat va qadriyatlar beshigi hamdir. Yil davomida turli sohalarda olib borilgan muntazam va izchil faoliyatning tub asosida ana shu qadriyatni asrab- avaylash, sha'nini yanada ulug'lash masalasi ustuvor bo'ldi.

Ota- bobolarimiz: “ Ertangi kunimizning yanada farovon bo'lishi uchun eng zarur omil- bugunning qadriga yetishdir”,-deb uqtirishgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023 yil yurtimizda “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”- deb e'lon qildilar. Muxtaram Prezidentimiz o'z nutqlarida, “ Bizning eng bebaho boyligimiz, bu – bunyodkor xalqimiz, duogo'y ota-onalarimiz, navqiron avlodimiz emasmi? Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo'ldan aslo to'xtamaymiz.

Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir. Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek:

“Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi,

Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi”, - deb ta'kidladilar.

Zotan, el- yurt obod va farovon bo'lishi uchun yurtimizda mustahkam qadamlar qo'yildi. Endi buning qadriga yetish, turmushimizning bundanda obod bo'lishi uchun bor kuch- g'ayratimizni ayamay harakat qilish o'zimizga , vaqtini qanday o'tkazishimizga bog'liq.

Har bir oila o'z farzandini kamolga yetaklar ekan, farzandini kelajakda yetuk inson bo'lib voyaga yetishini, har bir ota-ona uni albatta badiiy kitoblar o'qib ma'rifatli bo'lishini istaydi. Kitobdan olishlab ketmasligini qayg'uradi, xavotirga tushadi, mutolaa uchun ham vaqt ajratishini jon- dildan istaydi.

Ammo qo'lidan smartfon tushmaydigan, kiber o'yinlarga berilgan bugungi avlod bu xavotir zaminida nima yotganini to'la anglab yettimikan? Degan savol bugungi farzand tarbiyasiga bel bog'lagan zamondoshlarning bosh vazifasi bo'lib qolmoqda.

Uch yarim yashar nabiram Shoxruzjon mening hamma harakatlarimni takrorlaydi. Namoz o'qishimni ko'rib, sajdaga egilsam, uyam sajdaga egiladi. Biror kishi bilan telefonda gaplashsam, uyam televizorning pultini olib «gaplashadi». Ko'chamizda o'ynayotgan kattaroq bolalarning so'kinishi yoki boshqa yomon odatlarini ham ba'zan to'tiqushday takrorlab qoladi. Ota-onasi ishdan kelishi bilan ularning telefoniga yopishadi. Qani, bermay ko'rishsin-chi, uyni boshiga ko'taradi. Telefonni olishi bilan «Masha-medved»mi yo boshqa

o'yinni, ular arxivga tiqib tashlangan bo'lsa-da, topib olib bosh ko'tarmay tomosha qiladi.

Ha, bolalarga xos ziyraklik, topqirlik, kuzatuvchanlik va ayni paytda taqlidchilik xususiyatlari u esini taniy boshlagandayoq uyg'onarkan.

Telefon – o'yinchoq

Xo'sh, bolalarimiz bilib-bilmay atrofdagilarning yaxshi odatlarini emas, yomonlarini o'zlashtirib olmasliklari uchun nima qilayapmiz? Biz yomon odatlarimizni yosh bolaga zinhor ko'rsatmaymiz deysizmi? Adashdingiz. Qo'lingizda eng so'nggi rusumdagi telefon bor-a? Aytaylik, kimdir sizga qo'ng'iroq qilib qoldi. Tashqariga chiqib gaplashasizmi yoki ichkarida? Turgan gapki, ovozingizni balandlatib kichkintoyning oldida telefon qilayotgan kishiga javob berasiz. Endi farzandingizga e'tibor bering. Ha, barakalla, u ham qo'lini qulog'iga olib borib «telefon»da gaplashishni boshlaydi.

Gapning indallosiga o'tadigan bo'lsak, qo'l telefonlariga mukkasidan ketib termulayotgan, uning asiriga aylanayotganlar orasida ona suti og'zidan ketmagan bolalarning ko'pligi kishini xavotirga soladi.

Farzandingiz yoki nabirangiz telefonda har xil suratlar borligini, undagi qandaydir o'yinlarni o'ynaganingizni ko'rgan. Shuning uchun uni so'ragani-so'ragan. Keling, xarxasha qilayotgan bola ovunishi uchun unga har doim o'ynagan o'yinchog'i va... mobil telefoningizni ko'rsating. Qay birini tanlaydi? Albatta telefonni! Bu matoh, undagi tasvirlar aqlni rom etadigan shunday viruski, bolalarimizga ham allaqachon yuqqan. Sal aqlini tanigani va hatto maktabga borayotgani ham o'ziga qo'yib bersangiz, telefonni kecha-yu kunduz qo'lidan qo'ymasa. Biror badiiy kitobdan ikki varaq o'qimasa o'qimaydiki, telefonga mukkasidan ketadi. Bolasi injiqlik qilaversa, qulog'i tinchishi uchun unga o'sha matohni qo'shqo'llab topshirib qo'yayotgan ota-onalar ham oz emas.

Besh yoshgacha bo'lgan bolalar nega uning asiriga aylanib qolayapti?

Angliyalik shifokorlar mobil telefonning organizmga zarari ko'pligini, turli kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo'lishini isbotlashgan. Londonda faoliyat ko'rsatuvchi doktor Vini Kurana telefonning salbiy ta'siri bilan bog'liq miya saratoni bolalarni ham chetlab o'tmayotganini, agar bunga e'tiborsiz qaralaversa, yaqin 10 yil ichida saratondan halok bo'ladigan bolalar soni oshib borishini bildirgan.

– Dunyo olimlarining e'tirof etishicha, – deydi «Yilning eng yaxshi shifokori – 2019» respublika tanlovining «Yilning eng yaxshi oftalmologi» nominatsiyasi g'olibi, Qashqadaryo viloyati ko'z kasalliklari shifoxonasi oftalmologi Shokir Lutfullayev, – mobil telefon ayniqsa yosh bolalar uchun o'ta zararli.

– Elektromagnit to'liqlar inson irsiyatidagi tartibning buzilishiga, hujayralar faoliyatining izdan chiqishiga, organizmdagi ma'lum bir kasallik viruslarining faollashuviga sabab bo'ladi, xavfli o'sma kasalligini keltirib chiqaradi. Ispaniyadagi nevrodiagnostika ilmiy tekshirish instituti olimlarining fikricha, 11-13 yashar bolalar qo'l telefoni orqali ikki daqiqa gaplashsa, ularning bosh miyasidagi bioelektrik o'zgarishlar telefonni qo'ygandan keyin ham ikki soatga saqlanib qolar ekan.

Bolalardagi bezovtalangan miya faoliyati ruhiy muammolarga, o'qish qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, mobil telefonlar bolalarning organizmiga, bo'yining o'sishiga, immunitetiga, diqqatini jamlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, telefondagi o'yinlarni uzluksiz o'ynash oqibatida bolalarda umurtqa pog'onasining qiyshayishi, ko'z xastalıkları kuzatilayapti.

Qotil bolalar

Telefon o'yinlarida vaqt ham, joy ham muhim emas, asosiysi – g'olib bo'lish. Aksariyat o'yinlar shunday dasturlanganki, osonlikcha g'alabaga erishib bo'lmaydi. Bola g'olib bo'lish niyatida soatlab vaqtini behuda o'tkazaveradi. Eng yomoni, «dushman»ni yer tishlatish uchun o'zi sezmagan holda tajovuzkor bo'lib qoladi. Qarabsizki, unda betoqatlik, shafqatsizlik xususiyatlari shakllana boradi. Bir tanishim nabirasi singlisiga pichoq urmoqchi bo'layotganining ustidan chiqibdi. Buni akasining telefonidagi o'yindan ko'rgan emish.

Bundan bir-ikki yil oldin AQSHning Kentukki shtatidagi maktablarning birida Maykl ismli o'n to'rt yoshli bola uch nafar maktabdoshini otib o'ldirgani, yana besh o'quvchi og'ir ahvolda shifoxonaga yotqizilgani haqida o'qigandim. Aniqlanishicha, o'spirin qonli sahnalarga to'la telefon va internet o'yinlariga mukkasidan ketgan ekan. Kolorado shtatida o'n ikki nafar maktabdoshi va o'qituvchisining hayotiga zomin bo'lgan Erik Xarris va Villan Klebold oqibatda o'z jonlariga qasd qilishgan.

Bola necha yoshidan mobil telefondan foydalangani ma'qul?

Shifokorlarning ta'kidlashicha, o'n yoshgacha bo'lgan bolalarning bosh miya, ko'z, quloq, asab va suyak tizimlari hali to'la shakllanmagan bo'ladi. Uyali telefon aqliy qobiliyatni pasaytirib, asabiylashishga olib keladi, o'quvchini va uning atrofida gilarni mashg'ulotlardan chalg'itadi. Hindistonda o'n olti yoshgacha bo'lgan bolalarning uyali telefondan foydalanishi butunlay taqiqlangan. Yaponiya, Fransiya va Ispaniyada ham bolalarning mobil telefondan foydalanishida cheklovlar o'rnatilgan.

Mutaxassislarning fikricha, uyali telefondan foydalanish me'yori bir martalik suhbat uchun uch daqiqa atrofida bo'lishi, o'n oltiga kirmaganlarning bir martalik

suhbati ikki daqiqadan oshmasligi zarur. Suhbatlar o'rtasidagi oraliq 20-25 daqiqa bo'lganda uyali telefonning salbiy ta'siri kamayadi. Bolalar bir sutkada 30 daqiqadan ortiq gaplashmasligi lozim.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bolalarning smartfon va planshetlardan foydalanishi ularda ruhiy hamda psixologik muammolarni keltirib chiqaradi. AQSHlik olimlarning ta'kidlashicha, mamlakatdagi to'rt yoshgacha bo'lgan bolalarning 97 foizi, oilaviy daromadidan qat'i nazar, mobil telefonlardan foydalanadi. Uyqusizlik, semizlik, yakkalanib qolish, bosh miya shishi, saraton xuruji, barmoqlarning shikastlanishi, muloqot qobiliyatining pasayishi va o'rganishning cheklanishi telefon ikki yashar bolaga yetkazadigan zararning bir qismi ekan, xolos.

Dunyo olimlari bong uradi

Qo'l telefonlari va internet tarmog'ida axloqqa zid tasvirlar shu darajada ko'payib ketganki, bu hol yoshlarning odob-axloqi va ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, har yili yer yuzida 10 milliondan ortiq qiz 18 yoshga to'lmay turmush qurayotgan, 16 milliondan ziyod qiz homilador bo'lib qolayotgan, eng yomoni, butun dunyoda har kuni balog'atga yetmaganlarning 2000 nafardan ziyodi VICH virusini yuqtirib olayapti. Bunda mobil telefon yoki internetdagi behayolikni targ'ib qiluvchi o'yinlarning ta'siri yo'q deb o'ylaysizmi?

Makkajo'xori donini bodroqqa aylantirgan telefonlar

Bir kuni hamkasblar bilan mobil telefonlarning inson organizmiga salbiy ta'siri haqida suhbatlashib o'tirgandik. Shunda «Zamon» informatsion dasturining Qashqadaryo viloyatidagi muxbiri Shavkat Aminov teleekranda o'z ko'zi bilan ko'rgan bir voqeani so'zlab berdi:

– Televizor tomosha qilib o'tirgandim. Unda mobil telefonlarning inson organizmiga salbiy ta'siri haqida munozara bo'layotgandi. Boshlovchi o'nta zamonaviy telefonni stol ustiga aylana shaklida terib chiqdi. Uning o'rtasiga likobchada makkajo'xori donini qo'ydi. O'nta telefonga ham bir vaqtning o'zida qo'ng'iroq qilindi. Qay ko'z bilan ko'rayki, likobchadagi makkajo'xori donlari xuddi tovada tagiga olov yoqib qizdirgandek, chars-chars etib bodroqqa aylana boshladi.

Bu gapdan keyin mobil telefonlarning yoshlar organizmiga salbiy ta'siri haqida boshqa bir narsa deyish bizningcha ortiqcha.

Nega kitob o'qiymiz? O'zi kitob o'qish kerakmi?

Yaqinda ijtimoiy tarmoqda “Nega kitob o'qiysiz?” rukni ostida savol - javoblar o'tkazilgan edi. Unda javoblar turlicha bo'ldi: “Ko'ngil uchun taskinlik beradi,

beminnat maslahatchi , hayotda bizga to'g'ri qaror qabul qilishni o'rgatadi , insonni qadrlashni o'rganamiz , zerikmaslik uchun , dam olish uchun ...”.

Aslida , biz kitobni nega sotib olamiz va o'qiymiz ? Kitob — muallifning o'quvchi bilan so'zlashish uchun bitgan nasriy yo nazmiy ixtirosi. U orqali borliqni anglaymiz, ma'naviy jihatdan ulg'ayamiz, qadimgi insonlar bilan suhbat quramiz, ular boshidan o'tkazgan qiyinchiliklarning so'zlar orqali shohidi bo'lamiz va bugun uchun shukronalik hissini tuyamiz. Siz ham o'zi-ningizga savol bering: “Nega kitob mutolaa qilyapman?”

Kitob do'konlariga nazar

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda asosiy kitobxonlar yoshi 40 dan oshgan insonlar ekan, yoshlar emas. Kitob, kitob deymiz-u, mohiyatan qanday kitob sotib olayotganimizni ko'pchiligimiz bilmaymiz. Muqovasi yaltirab, o'ziga tortsa, nomi yoqib qolsa, darrov sotib olamiz. O'qish kerak ekan deb o'qiymiz-u, g'oyasiga tushunib-tushunmay tugatamiz. Shu sababmi, kitoblar yig'iladi, uyum bo'lib ketadi. Kitob sotib olish kerak, faqat yana murojaat etishimizga ishonsak. Eng muhimi, u boshqa oila a'zolarimiz uchun ham asqatsin. Yaqinda bir hikmatga ko'zim tushgandi: “Ko'p kitob va ko'p do'stdan hikmat yo'q, hikmat ularni tanlay bilishda”.

Bugun qaysi kitob do'koniga kirib ko'rmang, o'zbekning o'zi va o'zligidan, tarixidan so'zlovchi asarlardan ko'ra, inson psixologiyasi, hayotini o'zgartirishga, boyib ketishga yordam beruvchi kitoblar va ruhiyati ezilgan insonlar uchun “malham” deya tavsiya qilinayotgan tarjima asarlarning ko'proq sotilayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Tanlov jarayoni inson tafakkuri — kitobxon fikri haqida so'zlaydi. Mark Tven aytganidek, “Ma'nan yetuk kitoblarni o'qi. Aks holda, bir dasta qog'oz hayotingni zaharlashi mumkin”.

Shu o'rinda savol tug'iladi: “Nega klassik va sho'ro davridan hozirga qadar yaratilgan asarlar reklama qilinmaydi?” Axir, u kitoblar bugungi adabiyotga qaraganda ancha zalvorli yo'lni bosib o'tgan va o'quvchilari ham talaygina. Yangi asarlar reklamasiz o'qilmaydimi yoki talab va taklifning ortishi sabab reklama qilinyaptimi?

Reklama qilinayotgan kitoblar muqovasi ham shunchalik rang-barang ishlanganki, beixtiyor o'ziga tortadi. Nazarimda, asl adabiyot ortiqcha dabdaba va hashamga muhtoj emas. Reklama sohasida ham biroz islohotlar o'tkazish kerakdek. Bugun nashriyotlar va mas'ullar qay birini tanlashmoqda: ma'rifatmi yoki manfaat? Manfaat hech qachon tugamaydi. Shunday ekan, ma'rifatni manfaatga qurbon qilib qo'ymaylik.

Tarjimaning ahamiyati

Kitob do'koniga borib, ko'nglimdagi asarlarni topa olmay xunob bo'ldim. Sotuvchidan zamonaviy va mumtoz o'zbek adabiyoti namunalarini nega topib bo'lmasligini so'raganimda, quyidagi javobni oldim: "Bugun siz aytgan kitoblardan ko'ra, tarjima(turk va ozar tilidan tarjima qilingan) asarlar, yaxshi do'st topish, stressdan chiqish mavzusidagi adabiyotlar — mana bu qatorga

terilganlar yaxshi sotiladi. Talab ham ko'p. Shuning uchun ko'p olib kelamiz".

Ko'pchilik e'tirofiga sabab bo'lgan kitoblar haqida gaplashsak, bir-biriga mazmunan yaqin asarlar, ayniqsa ko'ngli bo'sh kishilar uchun ayni muddao. Masalan, ozar tilidan tarjima qilingan "Qaytganimda uyda bo'l", "Men albatta qaytaman", "To seni topgunimcha", "Dengiz haqida so'zlab ber menga", "Mariya", "Nasroniy atirguli" va peshtaxtalarni to'ldirib yotgan boshqa tarjima asarlar. Mehnatimiz faqat birlik sondagi manfaat uchun emas, xalq uchun xizmat qilishni qachon boshlaydi? Nashriyotlar paydar-pay chop etib, siyohi qurimay sotuvga uzatayotgan aksar kitoblar nega mazmunan sayoz? Bunda tarjimon yo nashriyotlar aybdormi? Ularni to'xtatolmaymizmi?

Afsuslanarlisi, tarjimon va nashriyotlarning sarflagan vaqti, mehnati, mablag'i qiymatga ega emasdek. Bilamizki, turk va ozar adabiyoti saviyasi bu asarlar

bilan o'lchanmaydi. Ularning ham buyuk adabiyoti saviyasi va tarixi bor. Nega turk yozuvchilari Yashar Kamol, Aziz Nesin, Nozim Hikmat, O'rxon Pomuq asarlari yoki ozar adabiyotidan Fuzuliy, Mirzo Fatali Oxundov, Ramiz Ravshan va ko'plab ijodkorlarning asarlari, kerak bo'lsa yangitdan tarjima qilinmaydi yoki kitob holida chop etilmaydi?

Biz o'qiguvchilarning fiklashimiz torayib, haqiqatdan xoli asarlarga ko'proq murojaat etyapmiz. O'zimizga yengillikni ravo ko'rib, zarar qilayotganimizni anglamayapmiz. Shu o'rinda, tarjima sohasida salmoqli natijaga erishgan o'zbek yozuvchilari Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom, M.Osim tarjima qilgan yirik asarlarni o'qishlarini do'stlarimga tavsiya qilganman.

Shu o'rinda o'z o'zidan "Tarjima maktabi" zarur ekanligini angladim.

Tarjima — turli xalqlar o'rtasida qarashlar va munosabatni shakllantiradi. Qadimgi davrlarda bu vazifani tilmochlar bajarganini bilamiz. Zamonlar osha bu jarayon ancha takomillashdi. Bugun "tarjima maktabi" zarur. Unda tarjimonlar uchun mahorat darslari o'tilib, yosh tarjimonlar ustoz-shogird an'analari asosida faoliyat olib borishsa, foydali bo'lardi. Ma'rifat va ziyo uchun xizmat qiluvchi davlat yoki xususiy nashriyot tashkil etish va uni topilmasga aylangan nodir asarlarni, jahonning buyuk ijodkorlarining nasriy va nazmiy asarlarini nashr etishga ixtisoslashtirish kerak. Xuddi shu kitoblar uchun do'kon tashkil etish yanada xayrli bo'lar edi. Axir, bugun kitob sotuvida jadid adabiyotimiz vakillaridan Behbudiy, Zaki Validiy, Fitrat, Sadridin Ayniy yoki XX–XXI asr ijodkorlari Parda Tursun,

Mirkarim Osim, Mirtemir, Oybek, Odil Yoqubov, Asqad Muxtor, Omon Muxtor, Shukrullo, Nazar Eshonqul asarlari yoki jahon adabiyotidan Chexov va Lev Tolstoy hikoyalari, Borxes, Folkner asarlarini juda kam uchratmoqdamiz.

Bir nashriyot xodimi suhbatda, hozirgi harakatlar qaysidir ma'noda nashriyot "oyoqqa turib olishi" uchun kerakligini, yaqin orada yirik tarjima asarlari va o'zbek klassik adabiyoti namunalariga qo'l urishlari haqida aytdi. Albatta, bu yaxshi yangilik. Kitobxonlarimizning ma'nan yuksalishiga xizmat qiladigan xayrli ishlarning ko'plab amalga oshirilishiga umid qilib qolamiz!

XULOSA

Xulosa o'rnida muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning " bizning eng bebaho boyligimiz, bu- Bunyodkor xalqimiz, duogo'y ota-onalarimiz, navqiron avlodimiz emasmi? Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo'ldan aslo to'xtamaymiz.

Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir kabi so'zlari biz yoshlarning yo'lchi yulduzi kabi mash'alamiz bo'lishi kerak!

Har bir oila o'z farzandini kamolga yetaklar ekan, farzandini kelajakda yetuk inson bo'lib voyaga yetishini, har bir ota-ona uni albatta badiiy kitoblar o'qib ma'rifatli bo'lishini istaydi. Kitobdan olishlab ketmasligini qayg'uradi, xavotirga tushadi, mutolaa uchun ham vaqt ajratishini jon- dildan istaydi.

Ammo qo'lidan smartfon tushmaydigan, kiber o'yinlarga berilgan bugungi avlod bu xavotir zaminida nima yotganini to'la anglab yettimikan? Degan savol bugungi farzand tarbiyasiga bel bog'lagan zamondoshlarning bosh vazifasi bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; 2023 yil
2. Amir Temur o'g'itlari. Toshkent, 1992.
3. Sh. Zunnun. Donishmandlar odob- axloq to'g'risida. -T: O'qituvchi,1996.
4. Isayeva M. Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish Muammo va yechimlar.Toshkent 2014 yil.
5. Davron Rajab. Ta'tildagi mutolaa. Toshkent 2023 yil.
6. uz.cosmetich.ru Bola va mobil telefon- salbiy va ijobiy tomonlari.